



**TASDIQLAYMAN**  
“Maxam-Chirchiq” AJ  
Boshqaruvi raisi  
**X.A. Saydaxmedov**

2025-yil “14” yanvar

**“Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatida yoshlarga oid davlat siyosati amalga oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha 2024-yil uchun ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritasi” bo‘yicha yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan HISOBOT**

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirilgan ishlar
<b>I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev raisligida bo‘lib o‘tgan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilish</b>		
1	“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tizimida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi mazmun-mohiyatiga muvofiq 2024-yil uchun “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va tasdiqlash.	<b>Bajarildi.</b> “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatida yoshlarga oid davlat siyosati amalga oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha 2024-yil uchun yo‘l xaritasi joriy yilning 20-fevral kuni tasdiqlangan bo‘lib, “O‘zkimyosanoat” AJga 2024-yil 20-fevral kuni 101-09/01-24-sonli xat bilan ma‘lumot sifatida yuborilgan.
2	Tizimda faoliyat yuritayotgan <b>“Yosh xodimlar balansi”</b> ni ishlab chiqish.	<b>Bajarildi.</b> “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatida o‘z mehnat faoliyatini olib borayotgan yosh xodimlar balansi ishlab chiqilib “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv raisining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi M.Abdurazakovga joriy yilning 25-apral kuni taqdim etilgan. <b>Hozirgi kunda</b> Yoshlar soni – 1142 ta; Erkaklar- 759 ta;

		<p><i>Ayollar – 383 ta;</i>  <i>Oliy ma'lumotlilar – 133 ta;</i>  <i>O'rta maxsus ma'lumotlilar – 1009 ta;</i>  <i>Rahbar lavozimida – 19 ta;</i>  <i>Yolg'iz onalar – 3 ta.</i></p>
3	<p>O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi hamkorligida "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida faoliyat olib borayotgan yoshlar bo'yicha maslahatchilar hamda koordinatorlarning uch kunlik o'quv seminarini tashkil etish</p>	<p><b>Bajarildi.</b>  "O'zkimyosanoat" AJ tashabbusi bilan tashkil etilgan uch kunlik o'quv seminarida "Maxam-Chirchiq" AJdan <i>R.S.Baydullayev, A.A.Ayxodjayev, M.M.Mirzayev, A.M.Yuldashev, I.T.Todjidinova</i>larning faol ishtiroki ta'minlanib, seminar yakuni bo'yicha sertifikatlarni qo'lga kiritdi.</p>
4	<p>Har bir tizim korxonasi va tashkilotlarida "Yoshlarga oid davlat siyosati"ni amalga oshirishga qaratilgan ishlar bo'yicha mas'ul – rahbarning yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilari va 4 ta yo'nalishda koordinatorlarini tayinlash.</p>	<p><b>Bajarildi.</b>  "Maxam-Chirchiq" AJ boshqaruv raisi yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisining 4 ta yo'nalish bo'yicha koordinatorlar tayinlangan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- <i>A.A.Ayxodjayev - Raqamli texnologiyalar va media yo'nalishi koordinatori;</i></li> <li>- <i>A.M.Yuldashev - Sport va harbiy-vatanparvarlik yo'nalishi koordinatori;</i></li> <li>- <i>I.T.Todjidinova - Kitobxonlik va intellektual o'yinlar yo'nalishi koordinatori;</i></li> <li>- <i>O.SH.Tursunboyev - Madaniyat va ma'rifat yo'nalishi koordinatori.</i></li> </ul>
5	<p>"O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalarining rahbarning yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilari ishtirokida tajriba almashish yuzasidan seminar-trening tashkillashtirish.</p>	<p><b>Bajarildi.</b>  Joriy yilning 13-noyabr kuni "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonasi rahbarlarining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilari ishtirokida, seminar-trening tashkillashtirildi. Tadbirdan asosiy ko'zlangan maqsad tizimda yoshlarga oid davlat siyosati borasidagi muammolar va takliflar o'rganildi va ularning yechimi bo'yicha "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruv raisining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi</p>

		M.Abdurazakov tomonidan tegishli topshiriqlar berildi.
<b>II. Tizimda yoshlar bilan ishlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirish, uning faoliyati samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari</b>		
<b>6</b>	“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi mazmun-mohiyatini tarmoq korxonalar yoshlari o‘rtasida targ‘ib qilish.	<b>Bajarildi.</b> “O‘zbekiston-2030” strategiyasining “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi mazmun mohiyati “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatining boshqarma, bo‘lim va sex yoshlari o‘rtasida targ‘ib qilindi hamda joriy yilning 17-iyul kuni boshqaruv raisi o‘rinbosari, boshqaruv raisining maslahatchilari hamda Kasaba uyushma qo‘mitasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot yig‘ilishi o‘tkazildi.
<b>7</b>	Yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida <b>“Eng yaxshi innovatsion g‘oya”</b> tanlovi, korxonalar va sexlar bo‘yicha iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha, yangi texnika va texnologiyalarni qo‘llab, samaradorlikni oshirish bo‘yicha tanlovlarni o‘tkazish (“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 11-band).	<b>Bajarildi.</b> 1. Joriy yilning 14-fevral kuni “Eng faol innovator ayol” ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. Unda: 1-o‘rinni Markaziy laboratoriya xodimi-I.Todjidinova; 2-o‘rinni Markaziy laboratoriya xodimi-Z.Abduraxmanova; 3-o‘rinni Texnik nazorat bo‘limi xodimi-N.Abduxalikova; 4-o‘rinni Nazorat o‘lchov asboblari va avtomatika sexi xodimi-K.Valijonova egalladi. 2. Ko‘rik-tanlovning respublika bosqichida “Maxam-Chirchiq” AJ Markaziy laboratoriya muhandislari-Iroda Todjidinova faxrli 2-o‘rinni, Zumrad Abduraxmanova 3-o‘rin sohibasiga aylandi.
<b>8</b>	Jamiyatda yosh xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan muhosasizlik muhitini yaratish, yosh xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash (“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 25-band).	<b>Bajarildi.</b> 1. Joriy yilning 2-fevral kuni <b>“Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikni bartaraf etish”</b> mavzusida tadbir tashkil etildi. Uchrashuvda Chirchiq shahar prokurorining katta

		<p>yordamchisi L. Zamitova tomonidan “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun mazmun-mohiyati tushuntirildi.</p> <p>Shuningdek, tadbirda so‘zga chiqqan Chirchiq shahar hokimi o‘rinbosari Y.Jumayeva oilaviy-maishiy zo‘ravonlikning oldini olish va uning salbiy oqibatlari, ayollarning bugungi jamiyatdagi o‘rni, ularning huquqlarini himoya qilish, ayollar jamiyatning faol a‘zosi ekanligiga alohida to‘xtalib o‘tdi.</p> <p>Tadbirda 60 dan ortiq xotin-qizlar qamrab olindi.</p> <p><b>2.</b> O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash maqsadida 2024-yil 25-noyabrdan boshlab respublika bo‘ylab “Zo‘ravonlikka qarshi 16 kunlik” shiori ostida 16 kunlik kampaniya e‘lon qilindi. Shu munosabat bilan “Maxam-Chirchiq” AJda davra suhbatini o‘tkazildi.</p> <p>Suhbatni Chirchiq shahar IIB huquqbuzarlik proflaktikasi bo‘limi xodimi podpolkovnik F.Mirxayitova hamda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi M.Toshpulatova olib bordi.</p> <p>Tadbirda 55 dan ortiq xotin-qizlar qamrab olindi.</p>
<p><b>9</b></p>	<p><b>11-fevral – “Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni”</b> munosabati bilan seminar tashkil etish.</p>	<p><b>Bajarildi.</b></p> <p>Joriy yilning 21-fevral kuni <b>“11-fevral–Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni”</b> munosabati bilan korxonada faol xotin-qizlari ishtirokida jamiyatda xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan seminar o‘tkazildi.</p> <p>Tadbirda Chirchiq Davlat pedagogika universiteti pedagogika kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori,</p>

		<p>professor Gulnora Ernazarova hamda pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent Maftuna Islamova ishtirok etdi. Tadbirda 20 dan ortiq xotin-qizlar jalb qilindi.</p>
10	<p>D.I. Mendelejev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent shahridagi filiali hamda “Ziyo forum fondi” hamkorligida qizlar o’rtasida <b>“Kimyo Girls”</b> respublika olimpiadasini tashkil etish</p>	<p><b>Bajarildi.</b>          Joriy yilining 14-mart kuni “O‘z kimyosanoat” AJ, “Ziyo forum” ilm-fan va ta’lim-tarbiyani rivojlantirish Xalqaro fondi hamda D.I.Mendelejev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti Toshkent shahridagi filiali bilan hamkorlikda talaba qizlar uchun kimyo fani bo‘yicha olimpiada tashkil etildi.          Respublika bosqichining 3 turida test va laboratoriya sinovlaridan eng ko‘p ball to‘plagan 15 nafar qiz ishtirok etdi.          Qizlar finalda jamoa sifatida o‘z innovatsion loyihalarini taqdim etishdi. Loyihalar dolzarbligi, energotejamkorligi va iqtisodiy samaradorligiga ko‘ra baholandi.</p>
11	<p><b>Respublika, viloyat, tarmoq va shahar</b> miqyosida o‘tkaziladigan <b>ko‘rik tanlovlarda</b>, korxonamiz yoshlarining muntazam ishtirokini ta’minlash</p>	<p><b>Bajarildi.</b>  <b>1.</b> Sportning “Armrestling” turi bo‘yicha XX Jahon kubogida “Karbamid” sexi mashinisti-Aziz Tadjiyev 20 ga yaqin davlat sportchilari orasida, 105 kg vazn toifasida (chap qo‘lda) kumush hamda (o‘ng qo‘lda) bronza medali sohibiga aylandi.  <b>2.</b> “O‘z kimyosanoat” AJda <b>“Eng faol innovator ayol”</b> ko‘rik-tanlovi respublika bosqich Tojiddinova Iroda faxrli 2-o‘rinni egalladi;  <b>3.</b> Chirchiq shahridagi korxonalar va tashkilotlar o‘rtasida “Zakovat Iquiz” intellektual o‘yinida korxonaning Maxam jamoasi <b>kuzgi mavsum chempioniga</b> aylandi.  <b>4.</b> “O‘z kimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalari xodimlari o‘rtasida mini-futbol hamda voleybol sport turlari bo‘yicha <b>“Boshqaruv raisi kubogi”</b> musobaqalarida faxrli 1-</p>

		<p>o‘rinlarni;</p> <p><b>5.</b> Toshkent viloyati korxonalar va tashkilotlar o‘rtasida mini-futbol bo‘yicha <b>faxrli 1-o‘rin</b>;</p> <p><b>6.</b> Kimyo sanoati yoshlari milliy forumida tashkil etilgan <b>Shaxmat bo‘yicha Boshqaruv raisi kubogida</b> Karimov Zeynur faxrli 1-o‘rinni;</p> <p><b>7.</b> “Eng yaxshi kimyoviy tahlil laboranti” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichida <b>Erkinova Munira faxrli</b> 2-o‘rin qo‘lga kiritdi.</p>
<b>12</b>	<p>Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida, yosh xodimlar uchun <b>“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil”</b> loyihasi doirasida Respublikaning diqqatga sazovor joylar, xususan, tarixiy shaharlar, qadimiy obidalar, ziyoratgohlar va yurtimizning so‘lim go‘shalariga sayohatlar tashkil etish (“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 26-band).</p>	<p><b>Bajarildi.</b></p> <p>“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” shiori ostida ichki turizm bo‘yicha korxonaning 145 nafar yoshlari uchun Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg‘ona, Toshkent shahri va Toshkent viloyati bo‘ylab sayohatlar tashkil etilgan.</p> <p>Teatrda tashriflar soni – 11 ta 267 nafar yoshlar;</p> <p>Kinoga – 1 ta 50 nafar (<i>Bahodir yalangto‘sh</i>);</p> <p>Konsertga – 5 ta 120 nafar yoshlar qamrab olingan.</p>
<b>III. Istiqbolli yosh rahbar kadrlarni tayyorlash yo‘nalishi</b>		
<b>13</b>	<p><b>“Ustoz-shogird”</b> an‘anasini davom ettirish maqsadida korxonada ko‘p yillar davomida mehnat qilgan xodimlarga yangi ishga qabul qilingan yoshlarni biriktirish</p>	<p><b>Bajarildi.</b></p> <p>“Maxam-Chirchiq” AJda “ustoz-shogird” an‘anasiga muvofiq joriy yilda 215 nafar yoshlar (<b><i>yangi ishga qabul qilingan yoshlar 171 ta</i></b>) 141 nafar ko‘p yillardan buyon korxonada mehnat qilib kelayotgan tajribali ustozlarga biriktirish orqali ularning malakalari va daraja-razryadlari oshirildi.</p>
<b>14</b>	<p>Korxonada faoliyat yuritayotgan <b>yoshlarning bilimni, saviya va kasbiy malakasini oshirish maqsadida o‘quv kurslariga</b> yo‘naltirish</p>	<p><b>Bajarildi.</b></p> <p><i>Yanvar oyida 2 nafar;</i></p> <p><i>Fevral oyida 2 nafar;</i></p> <p><i>Mart oyida 2 nafar;</i></p>

		<p><i>April oyida 5 nafar;</i>  <i>May oyida 56 nafar;</i>  <i>Iyun oyida 8 nafar;</i>  <i>Iyul oyida 9 nafar;</i>  <i>Avgust oyida 30 nafar;</i>  <i>Sentyabr oyida 7 nafar;</i>  <i>Oktabr oyida 7 nafar;</i>  <i>Noyabr oyida 5 nafar;</i>  <i>Dekabr oyida 13 nafar.</i></p> <p><b><i>Jami: 146 nafar yoshlar kasbiy malakasini oshirdilar.</i></b></p>
15	<p>Yoshlar o'rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish maqsadida <b>“Bir million dasturchi”</b> loyihasi asosida IT sohasida korxonalarda o'quv kurslarini tashkil etish (<u>“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 33-band</u>).</p>	<p><b>Bajarildi.</b>  “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatida 20 nafar ishchi-xodimlar (<b>9 nafari yoshlar</b>) uchun <b>“Bir million dasturchi”</b> loyihasi asosida IT sohasida bo'yicha 20 soatlik <b>o'quv kursi</b> tashkil etildi.</p>
16	<p>“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tarmoq korxonalarida yosh ishchi-xodimlar orasida xorijiy tillarni keng targ'ib qilish maqsadida <b>o'quv kurslari</b> tashkil etish (ingliz tili va boshqa tillar).</p>	<p><b>Bajarildi.</b>  “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatida joriy yilning 6-iyundan 6-dekabr kuniga qadar 20 nafar ishchi-xodimlar (<b>7 nafari yoshlar</b>) uchun ingliz tili bo'yicha <b>o'quv kursi</b> tashkil etildi</p>
17	<p>“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tarmoq korxonalarida ishchi-xodimlarining kasbiy malakasini oshirish maqsadida <b>“Jamiyatning eng yaxshi yosh payvandchisi”</b> ko'rik-tanlovini tashkil etish.</p>	<p><b>Ko'chirildi.</b>  <b>“Jamiyatning eng yaxshi yosh payvandchisi”</b> ko'rik-tanlovi joriy yilning dekabr oyida o'tkazish rejalashtirilgan edi. Ammo “Maxam-Chirchiq” AJda kapital ta'mirlashga tayyorgarlik ishlari boshlanishi munosabati bilan ko'rik-tanlov 2025-yilga ko'chirildi.</p>
18	<p>“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tarmoq korxonalarida ishchi-xodimlarining kasbiy malakasini oshirish maqsadida <b>“Jamiyatning eng yaxshi yosh elektr chilangari”</b> ko'rik-tanlovini tashkil etish.</p>	<p><b>Bajarildi.</b>  Joriy yilning 13-avgust kuni yosh ishchi-xodimlari o'rtasida <b>“Jamiyatning eng yaxshi yosh elektr-chilangari”</b> ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Musobaqaning yuqori daraja-razryadlilar o'rtasida:</p>

		<p>1-o'rinni Ammiak-2 sexi elektr-chilangari O'ktamov Shahriyor Dilshod o'g'li;</p> <p>2-o'rinni Ammoniy sulfat va sulfat kislota ishlab chiqarishi elektrmontyori Djumaniyazov Ismoil Madamin o'g'li egalladi.</p> <p>Musobaqaning quyi daraja-razryadlilar o'rtasida kechgan bahsda:</p> <p>Elektr ta'minot sexi elektrmontyori Altiboyev Erjaxon Muxtar o'g'li g'olib deb topildi.</p>
19	<p>“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tarmoq korxonalarida ishchi-xodimlarining kasbiy malakasini oshirish maqsadida <b>“Jamiyatning eng yaxshi yosh laboranti”</b> ko‘rik-tanlovini tashkil etish.</p>	<p><b>Bajarildi.</b></p> <p>Joriy yilning 16-aprel kuni “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatida “Jamiyatning eng yaxshi yosh kimyoviy tahlil laboranti” ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Unda korxonaning turli sexlarida mehnat qilayotgan 12 nafar yosh laborantlar o'zaro bellashishdi va yakunda:</p> <p>1-o'rinni Texnik nazorat bo'limi xodimasi-Erkinova Munira;</p> <p>2-o'rinni Sanitar laboratoriya xodimasi-Djadigerova Hurzada;</p> <p>3-o'rinni Ammoniy sulfat va sulfat kislota ishlab chiqarishi xodimasi-Axbayeva Laylo hamda Markaziy laboratoriya xodimasi-Mamarasulova Iroda egalladi.</p>
20	<p>“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tarmoq korxonalarida ishchi-xodimlarining kasbiy ma'lakasini oshirish maqsadida <b>“Jamiyatning eng yaxshi yosh metrologi” (NOA va A)</b> ko‘rik-tanlovini tashkil etish.</p>	<p><b>Bajarildi.</b></p> <p>Joriy yilning 29-avgust kuni “Maxam-Chirchiq” AJning yoshlari o'rtasida <b>“Jamiyatning eng yaxshi yosh metrologi”</b> ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Jamiyatning Metrolog kasbida faoliyat olib borayotgan yosh, iqtidorli va umidli 12 nafar yosh mutaxassislari g'oliblik uchun kurash olib borishdi va yakunda:</p> <p>1-o'rinni “Nazorat o'lchov asboblari va avtomatika” sexi xodimi - Shoxrux Ergashbayevich Rizabayev;</p> <p>2-o'rinni “Ammoniy sulfat va sulfat kislota” ishlab</p>

		chiqarishi xodimi - Denis Aleksandrovich Kirsanov; 3-o‘rinni “Gaz xom-ashyosini tayyorlash” sexi xodimi - Behruz Nishon o‘g‘li Nasulloev egalladi.
21	“Xakaton tajribasi” (Tatariston) loyihasi asosida tanlov tashkil etish.	<p><b>Bajarildi.</b></p> <p>Joriy yilning 27-may kundan 1-iyun kuniga qadar “Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot” kimyo haftaligi doirasida “Kimyo sanoati yosh mutaxassisleri” ilmiy-intellektual forumi bo‘lib o‘tdi. Mazkur forumda “O‘z kimyosanoat” AJ tizim korxonalari – “Maxam-Chirchiq” AJ, “Navoiyazot” AJ, “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ, “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MCHJ QK, “Qizilqum fosforit kompleksi” MCHJ, “Ammofos-Maxam” AJ, “O‘z kimyosanoatloyiha” AJlarda faoliyat yuritayotgan yosh kimyogar mutaxassislar, shuningdek, D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filiali, Toshkent kimyo-texnologiya instituti hamda Yangi O‘zbekiston universiteti talabalari - jami 200 nafar yoshlar ishtirok etishdi. Dastlab ishtirokchilar D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti Toshkent shahridagi filialiga tashrif buyurishdi. Ilm dargohida sohaning bo‘lajak mutaxassisleri uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishildi. Shuningdek, ishtirokchilar Chirchiq kimyo-industrial texnoparkida ham bo‘lishdi. Texnoparkda ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishishdi. O‘zlarini qiziqtirgan savollariga mutaxassislardan batafsil javoblar olishdi. Forum Bo‘stonliq tumanida joylashgan Yoshlar oromgohida bo‘lib o‘tdi.</p>
22	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining 4 oylik qayta tayyorlov o‘quv kursiga 3 nafardan umidli va iste‘dodli yoshlarni	<p><b>Bajarildi.</b></p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining 4 oylik qayta tayyorlov o‘quv</p>

	yo'naltirish.	kursiga "Maxam-Chirchiq" AJning 3 nafar umidli va iste'dodli yoshlari yo'naltirildi. <ul style="list-style-type: none"> <li>- Akzamov Farruh Bahtiyar o'g'li;</li> <li>- Baynazarov Umid Todjiddinovich;</li> <li>- Ayxodjaev Azamatxuja Azimxo'ja o'g'li.</li> </ul>
23	Xorijiy til sertifikatlarini olgan yosh kadrlar bo'yicha monitoring yuritish va chet el koorxonalarida malaka oshirishlari uchun sharoit yaratilishini yo'lga qo'yish	<b>Bajarildi.</b> Davlat tashkilotlari ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimida PQ-5117-sonli Prezident Qaroriga asosan xorijiy til sertifikatiga ega bo'lgan xodimlar uchun qo'shimcha ustama xaq beriladi, "O'zkimyosanoat" AJ tizimida nafaqat yoshlar balki barcha ishchi-xodimlar uchun ham shunday tizimni joriy qilish bo'yicha taklif "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruv raisi Temirov Odil Shukurovichga kiritildi.
<b>IV. "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" g'oyasi asosida mamlakatimizdagi yangilanish jarayonlari, amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarini targ'ib qilish orqali tizimdagi yoshlarni vatanparvarlik, faol fuqarolik pozitsiyasi va daxldorlik hissini kuchaytirish</b>		
24	Telegramm kanali, rasmiy veb-sayti, feysbuk, instagram orqali "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, tadbirlarni tezkor yoritib borish.	<b>Bajarildi.</b> Korxonaning telegramm kanali, rasmiy veb-sayti, feysbuk, instagram mesenjerlari orqali "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, tadbirlarni tezkor yoritib borishi ta'minlandi..
25	"Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" g'oyasi asosida tarmoq korxonalarida yoshlarni vatanparvarlik, faol fuqarolik pozitsiyasi va daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida sport musoboqalari tashkil etish, teatr, tarixiy obidalar va muzeylarga sayohatlar uyushtirish.	<b>Bajarildi.</b> "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" g'oyasi asosida "Maxam-Chirchiq" AJda yoshlarini vatanparvarlik, faol fuqarolik pozitsiyasi va daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida: Teatrga tashriflar soni – 11 ta 267 nafar yoshlar; Kinoga – 1 ta 50 nafar ( <i>Bahodir yalangto'sh</i> ); Konsertga – 5 ta 120 nafar; Jamiyatda 24 ta turli sport tadbirlari amalga oshirilgan.

26	<p>“5-dekabr – Xalqaro volontyorlar kuni” munosabati bilan yosh xodimlar o‘rtasida volontyorlik faoliyatini keng targ‘ib qilish.</p>	<p><b>Bajarildi.</b>          Joriy yilning 3-dekabr “Maxam-Chirchiq”AJ rahbariyati va faol yoshlar Chirchiq shahrida istiqomat qiluvchi nogironligi bo‘lgan 17 nafar fuqarolarning holidan xabar olib, birlamchi oziq-ovqat to‘plamlarini topshirishdi.</p>
<p><b>V. “Ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak!” tamoyili asosida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo‘yicha “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tajribasi</b></p>		
27	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida “Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak” mavzusida so‘zlagan nutqi mazmun-mohiyatini yoshlar o‘rtasida o‘rganish.</p>	<p><b>Bajarildi.</b>          Joriy yilning 17-may kuni korxonaning “Ammoniy sulfat va sulfat kislota” ishlab chiqarishida Boshqaruvi raisi maslahatchilari I. Kurbanaliyev hamda R.Baydullayev ishchi-xodimlarga ma’naviy tahdidlar kabi salbiy illatlar va uning zararli oqibatlar haqida ma’lumot berib o‘tildi va shu o‘rinda yurtimizdagi tinchlik va barqarorlik oliy ne’matligi, har bir millatning ma’naviyatini uning tarixi, urf-odatlar, an’analari, barhayot qadriyatlarini tashkil etishi ta’kidlab o‘tildi. Tadbirda 35 nafar yoshlarning ishtiroki ta’minlandi.</p>
28	<p>O‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida yoshlar o‘rtasida “Yosh kitobxon” tanlovini o‘tkazish (“O‘zbekiston–2030” strategiyasi, 39-band).</p>	<p><b>Bajarildi.</b>          Joriy yilning 24-iyun kuni jamiyati yoshlari o‘rtasida “Yosh kitobxon xodim” tanlovi o‘tkazildi. Tadbir qizg‘in kurashlarga boy kechdi va yakunda:          1-o‘rinni “Suv ta’minoti” sexi xodimi-S.Xusanbayeva;          2-o‘rinni “Markazlashtirilgan elektr uskunalari ta’minlash” sexi xodimi-D.Xalmetov;          3-o‘rinni “Markaziy laboratoriya” xodimi-I.Tojidinova qo‘lga kiritdi.</p>
29	<p>Yoshlar ittifoqi hududiy kengashlari hamkorligida “Zukko kitobxon” tanlovini tashkil etish</p>	<p><b>Bajarildi.</b>          Joriy yilda “Maxam-Chirchiq” AJning Xusanbayev Sayyora, Mamarasulova Iroda, Tuychiyeva Malika hamda Xalmetov Davronlarning “Zukko kitobxon” tanlovida ishtiroki ta’minlandi</p>

<p><b>VI. “O‘z kimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining sohaviy o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yosh xodimlarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, tizimdagi yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular qalbida milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirish, intilish hamda tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash yuzasidan chora-tadbirlar belgilash</b></p>		
<p><b>30</b></p>	<p><b>“Rahbar va yoshlar”</b> uchrashuvlarini tashkil etish.</p>	<p><b>Bajarildi.</b></p> <p><b>1.</b> Joriy yilning 27-may kundan 1-iyun kuniga qadar “Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot” kimyo haftaligi doirasida rahbar va yoshlar uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. “O‘z kimyosanoat AJ” boshqaruv raisining o‘rinbosari Akobir To‘xtayev “Kimyo sanoati yosh mutaxassislari” milliy forumi ishtirokchilar bilan uchrashdi. Unda shuningdek, tarmoq korxonalarini va bir qancha oliy ta’lim muassasalari rahbarlari ham ishtirok etishdi. Samimiy va mazmunli ruhda o‘tgan uchrashuvda yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi va o‘z takliflarini bildirishdi.</p> <p><b>2.</b> Joriy yilning 16-may kuni “O‘z kimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi Timur Muxamedjanov ishtirokida “Rahbar va yoshlar uchrashuvi” tashkil etildi. Uchrashuvda tarmoq korxonalarini yoshlar masalalari bo‘yicha boshqaruvi raisi maslahatchilari, yosh mutaxassislar hamda D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent filiali talabalari ishtirok etishdi.</p> <p><b>3.</b> Joriy yilning 18-dekabr kuni Chirchiq kimyo-industrial texnoparkida 2024-yil – “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” sarhisobi hamda Respublika bo‘yicha o‘tkazilayotgan “O‘zbekiston yoshlari forumi-2024” tadbirlari doirasida “O‘z kimyosanoat” va “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvi raislari ishtirokida <b>“Rahbar va yoshlar”</b> uchrashuvi tashkil etildi.</p>

		Uchrashuvda “Maxam-Chirchiq” AJda faoliyat yuritayotgan 100 nafardan ortiq yoshlar hamda kimyo yo‘nalishida ta’lim olayotgan iqtidorli talabalar ishtirok etdi.
31	<b>30-iyun – “Yoshlar kuni”</b> munosabati bilan <b>“Yosh kimyogarlar”</b> forumini o‘tkazish	<p><b>Bajarildi.</b></p> <p>30-iyun yoshlar kuni munosabati bilan iyun oyida jamiyat yoshlari uchun yoshlar oyligi doirasida:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Joriy yilning 19-iyun kuni “Kimyogarlar” madaniyat saroyi hovlisida “Yangi O‘zbekiston yoshlari birlashaylik” shiori ostida yoshlar festivalida 200 ga yaqin yoshlarining ishtiroki ta’minlandi;</li> <li>2. 24-iyun kuni “Yosh kitobxon xodim” tanlovi o‘tkazildi;</li> <li>3. 25-iyun kuni “Amirsoy resort” tog‘li kurortida san’atkorlar “HammAli &amp; Navai”ning yakkaxon konsertiga 50 nafar faol yoshlar ishtirok etishdi.</li> <li>4. “Maxam Chirchiq” AJning 50 nafar yosh xodimlari uchun Toshkent shahri bo‘ylab sayohat tashkil etildi.</li> <li>5. “Maxam Chirchiq” AJ 50 nafar yoshlari “Bahodir Yalangto‘sh” filmi premyerasida bo‘lishdi;</li> <li>6. Korxonaning 8 nafar eng faol yoshlari bir martalik pul mukofotlari bilan taqdirlanishdi.</li> </ol>
32	<b>“Har bir yoshga bir nihol”</b> loyihasi asosida <b>“Yoshlar bog‘i”</b> da turli manzarali va mevali daraxt ko‘chatlarini ekish hamda ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarini amalga oshirish	<p><b>Bajarildi.</b></p> <p>Yashil makon ekologik aksiyasi doirasida “Maxam-Chirchiq” AJning “Ammoniy sulfat va sulfat kislota” ishlab chiqarish hududida tashkil etilgan <b>“Yoshlar bog‘i”</b>ni obodonlashtirish hamda begona va yovvoyi o‘tlardan tozalash maqsadida “Hashar–biz yoshlarga yarashar” shiori ostida joriy yilning mart-noyabr oylarining 1-o‘n kunliklarida doimiy ravishda korxonada yoshlari ishtirokida obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.</p>
33	Yoshlarning yoz mavsumida maroqli dam olishlari uchun <b>suzish havzalariga</b> borishlarini tashkil qilish	<p><b>Bajarildi.</b></p> <p>Korxonada yoshlarning yoz mavsumida maroqli dam olishlari</p>

		uchun Chirchiq shahrida joylashgan <b>“Zerom”</b> suzish havzasi uchun 100 ta chiptalar jamiyatning faol yoshlariga tarqatildi.
<b>34</b>	<b>“Kimyogar”</b> bolalarni sog‘lomlashtirish oromgohining mavsumga tayyorgarlik davrida, korxonada yoshlari bilan birgalikda xashar tashkil etish	<b>Bajarildi.</b> Joriy yilning 22-may kuni <b>“Kimyogar”</b> bolalarni sog‘lomlashtirish oromgohining mavsumga tayyorgarlik ishlarida korxonada yoshlarining munosib hissasini qo‘shish maqsadida 35 nafar faol yoshlar ishtirokida xashar tashkil etildi.
